

Jaloliddinov Sherzodbek Ikromovich

Fargʻona Jamoat Salomatligi Tibbiyot Instituti

Normal anatomiya kafedrasida assistenti

Email: jaloliddinovdrsherzod@gmail.com

Rustamova Jasmina Nazirjon qizi

Fargʻona Jamoat Salomatligi Tibbiyot Instituti

Stomatologiya yoʻnalishi 1-bosqich talabasi

Email: jasmintustamova@icloud.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada soʻnggi yillarda Oʻzbekiston aholisida uchrayotgan oshqozon rakini keltirib chiqarayotgan unsurlar, ularni profilaktikasi tahlil qilingan. Xususan, onkoxirurgiyada operatsiyadan soʻng beʼmorlarni individual holati, kasallik asoratlari haqida maʼlumot beriladi. Sogʻliqni saqlashda olib borilayotgan keng islohotlar natijasida xalqimizga koʻrsatilayotgan tibbiy xizmatning sifati va qulayligi ortib borayotgani taʼkidlangan.*

Kalit soʻzlar: *Sogʻliqni saqlash, tibbiyot, profilaktika, operatsiya, onkoxirurgiya, saraton, oshqozon, kasalliklar.*

Аннотация: *в данной статье анализируются выявленные за последние годы рак желудка у населения Узбекистана, элементы их профилактики. В частности, в онкологии пациентов после операции информируют об индивидуальном состоянии и осложнениях заболевания. Было отмечено, что в результате широкомасштабных реформ в сфере здравоохранения повышается качество и доступность медицинской помощи, оказываемой нашим гражданам.*

Ключевые слова: *здравоохранение, медицина, профилактика, хирургия, онкология, рак, желудок, заболевания.*

Annotation: *This article analyzes the factors contributing to the development of gastric cancer among the population of Uzbekistan in recent years, as well as measures for its prevention. In particular, it provides information on the individual condition of patients after surgery and possible complications of the disease in oncological surgery. The paper also emphasizes the improvements in the quality and accessibility of medical services provided to the population as a result of extensive reforms carried out in the healthcare system.*

Keywords: *healthcare, medicine, prevention, surgery, oncological surgery, cancer, stomach, diseases.*

Kirish. *Inson salomatligi har qanday mustaqil davlatning taraqqiyoti bosh mezoni hisoblanadi. Jamiyatning kuchi eng birinchi navbatda uning xalqi sogʻlom va osoyishta umr kechirayotganiga bogʻliqdir.*

Oshqozon rak kasalliklari bugungi kundagi dolzarb muammolardan biri. Tibbiyotda onkoxirurgiya eng ahamiyatli yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Albatta har bir shaxs kasallikka chalinishidan avval bu kasallikni keltirib chiqaruvchi omillardan o‘zini uzoqlashtirishi lozimdir. O‘z o‘zini profilaktika qilish juda ko‘p ko‘nglsiz holatlarni va davosiz kasalliklarni oldini oladi.

O‘zbekiston Respublikasida sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish va isloh qilish, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, fuqarolarning tibbiy xizmatga bo‘lgan huquqini ta‘minlashda keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Asosiy qism. Oshqozon rak oldi kasalliklari- bu oshqozon shilliq qavatida yuz beradigan o‘zgarishlar bo‘lib, ular oshqozon saratoni (rak) rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Bu holatlar hali saraton emas, lekin inson hayoti davomida davolanmasa, keyinchalik rakka aylanish xavfi juda yuqori hisoblanadi.

Asosiy oshqozon rak oldi kasalliklari bular:

1.Surunkali atrofik gastrit ya‘ni Gastritis chronica atrophica.

Oshqozon shilliq qavatidagi bezlar kamayadi, shilliq yupqalashadi. Natijada me‘da shirasi kamayadi. Himoya xususiyati esa pasayadi.

2. Ichak tipidagi metaplaziya ya‘ni Metaplasia intestinalis.

Oshqozon shilliq qavati hujayralari ichak epiteliyiga o‘xshab o‘zgaradi. Bu holat rakning boshlang‘ich bosqichiga o‘tish ehtimolini oshiradi.

3. Displaziya ya‘ni Dysplasia epithelialis ventriculi.

Hujayralarning tuzilishi va bo‘linishi buziladi. Eng xavfli rak oldi holat hisoblanadi. O‘rta va og‘ir darajali displaziyalar bevosita saratonga aylanishi mumkin.

4. Me‘da yarasi Ulcus ventriculi.

Surunkali va qaytalanuvchi yaralar rakka o‘tishi mumkin (xususan, “raklashgan yara” deb ataladi.) Ayniqsa qari yoshdagi erkaklarda bu xavf yuqori.

Asosiy omillar:

Noto‘g‘ri ovqatlanish (achchiq, sho‘r, tutunli taomlar)

Chekish;

Alkogol;

Genetik moyillik;

Uzoq davom etgan gastrit.

Oldini olish choralari:

Sog‘lom ovqatlanish;

Chekish va spirtli ichimliklardan voz kechish;

Oshqozon kasalliklarini erta davolash;

Endoskopik tekshiruvni muntazam o‘tkazish.

Oshqozon raki yoki oshqozon saratoni - bu oshqozon ichki qoplamasidagi ya‘ni shilliq qavatidagi hujayralarning nazoratsiz o‘sib, o‘sma hosil qilishi bilan kechadigan yomon sifatli o‘sma kasalligi hisoblanadi.

Kasallikning sabablari:

Oshqozon saratoniga ko‘p omillar sabab bo‘ladi. Asosiylari esa:

Noto‘g‘ri ovqatlanishdir. Ya‘ni tuzlangan sho‘r tarkibli moddalar, dudlangan mahsulotlar va konservalangan taomlar iste‘molini ortishi.

Muntazam alkogol mahsulotlarini qabul qilish.

Doimiy chekish.

Simptomlari: kasallik dastlab sezilarli belgilar bermasligi bilan xavflidir. Biroq vaqt o‘tishi bilan quyidagilar paydo bo‘ladi:

Tez to‘yish;

Ko‘ngil aynishi, qusish;

Ishtahaning yo‘qolishi (ayniqsa go‘sh tga nisbatan);

Vazn yo‘qotish;

Anemiya (qon yetishmovchiligi);

Qorin sohasida og‘riq;

Qon aralash qusish.

Diagnostika (tashxis qo‘yish)

Rentgen kontrast tekshiruvi;

KT yoki MRT- o‘sma tarqalishini aniqlash uchun;

Ultratovush tekshiruvi (UZI);

Qon tahlili (CA-19-9, CEA).

Davolash usullari kasallik bosqichiga bog‘liq:

Jarrohlik usuli- o‘sma joylashgan qismini yoki butun oshqozonni olib tashlash ya‘ni gastrektomiya;

Kimyoterapiya- o‘sma hujayralarini yo‘qotish uchun maxsus dori vositalari;

Radioterapiya- nurlanish, o‘sma hujayralarini nurlantirish.

Profilaktikasi:

Spirтли ichimliklar va chekishdan voz kechish;

Oshqozon yarasini e‘tiborsiz qoldirmaslik;

40 yoshdan keyin muntazam tekshiruvlar olib borish;

To‘g‘ri ovqatlanish.

Statistik ma‘lumot: Oshqozon saratoni erkaklarda ayollarga qaraganda ko‘proq uchraydi. Ko‘p hollarda u 40 yoshdan keyin ayniqsa, 50-70 yosh oralig‘ida aniqlanadi. Osiyo mamlakatlarida (Yaponiya, Xitoy, Koreya) bu kasallik nisbatan keng tarqalgan.

Xulosa: Oshqozon saratoni erta bosqichda aniqlansa davolash mumkin bo‘lgan kasallikdir. Rak kasalligiga uchramasligimiz uchun albatta muntazam ravishda sog‘lom turmush tarzimizni nazoratda ushlashimiz, doimiy sog‘lom taomlar bilan ovqatlanishimiz ayniqsa, ertalabki nonushtani o‘tkazib yubormasligimiz lozim. Chekish va alkogolni tark etish ham muhim sabablardan biridir va bu albatta o‘sma xavfini

oldini oladi. 40 yoshdan keyin tibbiy nazoratni kuchaytirish kerak. Oshqozon yaralarini vaqtida davolash ularni e'tiborsiz qoldirmaslik lozim.

FOYDALANILGAN AXBOROTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi. "Tibbiyot sohasida islohotlar va raqamli sog'liqni saqlash loyihalari" [onlayn manba]. – <https://ssv.uz>
2. The United Nations in Uzbekistan. Health Sector Reform. – <https://uz.one.un.org>
3. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO). Universal Health Coverage. – <https://www.who.int/> (<https://www.who.int/>)
4. STT SSV.uz. Sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish dasturlari. – <https://stt.ssv.uz>
5. Zhaloliddinov Sh.I. POSTOPERATIVE COMPLICATIONS: RISKS AND PREVENTION OF GASTRIC ULCERS 144-146. 2025.06.11 <https://eijmr.org/conferences/index.php/eimrc/article/view/916>
6. Jaloliddinov Sh.I. PERFORATED ULCER OF THE STOMACH AND DUODENUM: CLINICAL, DIAGNOSTIC, AND SURGICAL ASPECTS 601- 603. 2025.05.28 <https://www.eijmr.org/index.php/eijmr/article/view/3156>
7. J. Sherzod Gastrit 38-40 2024. WORLD OF SCIENCE.